



FARG'ONA VILOYATI QO'QON SHAHAR HOKIMINING QARORI

2022 йил «5» май

128-11-166-Q/22

Қўқон шаҳар ҳокимлиги

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 84-sonli qarori hamda Viloyat hokimining 2022-yil 18-apreldagi 162-11-0-Q/22 – sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik (OIV infeksiyasi) tarqalishiga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, shuningdek, yoshlarning faol ishtirokida odam immunitet tanqisligi virusi infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashish tadbirlarini tizimli tashkil etish, ushbu tadbirlarga tegishli tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlarini keng jalb qilgan holda ularning mazkur sohada idoralararo hamkorlik mexanizmlari samaradorligini oshirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 84-sonli qarori **hamda Viloyat hokimining 2022-yil 18-apreldagi 162-11-0-Q/22 –sonli qarori** ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6,25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida odam immunitet tanqisligi virusi infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurash bo‘yicha yoshlar faolligida olib boriladigan tizimli targ‘ibot tadbirlari konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 84-sonli qarori **hamda Viloyat hokimining 2022-yil 18-apreldagi 162-11-0-Q/22 –sonli qarori** rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

a) O‘zbekiston Respublikasida odam immunitet tanqisligi virusi infeksiyasi

tarqalishiga qarshi kurash bo'yicha yoshlar faolligida olib boriladigan tizimli targ'ibot tadbirlari konsepsiyasi (keyingi o'rinlarda – Konsepsiya) 1- ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Quyidagilar Konsepsiyaning asosiy maqsadlari etib belgilanganligi:

aholi o'rtasida odam immunitet tanqisligi virusi (keyingi o'rinlarda – OIV) infeksiyasi tarqalishini kamaytirish;

OIV infeksiyasi tarqalishining oldini olishda aholining xabardorligini oshirish;

OIV infeksiyasining aholi, ayniqsa yoshlar orasida tarqalishining oldini olish masalasida aniq maqsadga yo'naltirilgan tadbirlarni amalga oshirish;

OIV va orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi (OITS) epidemiyasiga qarshi kurashish va uning oqibatlarini bartaraf etish, aholining, jumladan, yoshlarning xabardorligini oshirishga qaratilgan rejalarni O'zbekistonning strategik rivojlanish dasturlariga kiritish;

aholining turli qatlamlari, shuningdek, OIV infeksiyasini yuqtirib olish xavfi yuqori guruhlar, OIV infeksiyasi bilan kasallangan bemorlarning yaqinlari orasida tushuntirish ishlari qamrovini yanada oshirish;

ma'lumot olish imkoniyatlari cheklangan aholi guruhlari va shaxslar (til to'sig'i, hududning uzoqligi, jismoniy imkoniyatlari cheklangan va boshqalar)ga ma'lumot olishlari uchun axborot tarqatishning maxsus usullaridan foydalanishni ta'minlash;

yoshlar, ayniqsa o'smirlar orasida OIV infeksiyasi tarqalishining oldini olish bo'yicha o'tkaziladigan turli targ'ibot-tashviqot tadbirlarida OIV bilan kasallangan fuqarolarga nisbatan bag'rikenglik, insoniylik muhitini shakllantirish;

mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda profilaktik tadbirlarga OIV infeksiyasi bilan kasallangan shaxslarni jalb etish, inson sog'lig'i uchun xavfsiz bo'lgan usullar bo'yicha ish olib borish;

ijtimoiy tarmoqlarda OIV infeksiyasi xavfini muntazam yoritib boruvchi alohida bloglar/saytlar faoliyatini yo'lga qo'yish;

hamkor tashkilotlar bilan aholi, ayniqsa yoshlar o'rtasida oilaga sodiqlik, tasodifiy jinsiy munosabatlarning salbiy oqibatlari, jinsiy faoliyatni oila qurgandan keyin boshlash to'g'risida targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishda ommaviy

axborot vositalaridan keng foydalanish;

OIV infeksiyasi profilaktikasiga bag'ishlangan ijtimoiy videoroliklarni ommaviy axborot vositalari orqali efirga muntazam uzatib borish, aeroport va temir yo'l kutish zallari hamda metrolarda namoyish etish;

xavfsiz xulq-atvorni targ'ib qiluvchi profilaktika dasturlarida aholining OIV infeksiyasini yuqitirib olish xavfi yuqori guruhlari qamrovini oshirish;

targ'ibot tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirishga ko'maklashish uchun ta'lim tashkilotlari, mehnat jamoalari va xorijda yashovchi vatandosh yoshlar ishtirokida "salomatlik valantyorlari" harakatini tashkil etish;

OIV infeksiyasi profilaktikasi va uni diagnostika qilish, davolash bo'yicha kelgusida aholiga ko'rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy yordamni yanada takomillashtirish va kengaytirish uchun OIV infeksiyasi profilaktikasi, diagnostikasi va davolash bo'yicha tibbiyot xodimlarining kasbiy bilim darajalarini doimiy ravishda oshirib borish hamda aholining OIV infeksiyasi tekshiruvlari qamrovini oshirish;

OIV infeksiyasi epidemiyasini harakatlantiruvchi kuchlarni muntazam ravishda o'rganib, natijasiga muvofiq profilaktik tadbirlarni belgilab borish, OITSGa qarshi kurash xizmatida faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislarning uzoq xorij va hamdo'stlik mamlakatlari tajribalarini o'rganib, ular bilan hamkorlikda ilmiy izlanishlar olib borishini yo'lga qo'yish.

b) Konsepsiyaning asosiy maqsadlari ijrosini ta'minlashga qaratilgan hamda OIV infeksiyasi profilaktikasi, tibbiy tekshiruvdan o'tkazish qamrovini oshirish, diagnostika va infeksiyaga chalingan shaxslarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish tadbirlarini nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasida odam immunitet tanqisligi virusi infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurash bo'yicha yoshlar faolligida olib boriladigan tizimli targ'ibot tadbirlari konsepsiyasini 2022 yilda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganiligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. "Odam immunitet tanqisligi virusi infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurash bo'yicha yoshlar faolligida olib boriladigan tizimli targ'ibot tadbirlari konsepsiyasini 2022 yilda amalga oshirish bo'yicha yo'l xaritasi" (keyingi o'rinlarda - "Yo'l xaritasi") **1-ilovaga**, shahar idoralararo ishchi guruhi tarkibi **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Shahar Tibbiyot birlashmasi (K.Sirojiddinov), shahar hokimi o‘rinbosari (Sh.Dexkanov) bilan birgalikda:

uch kun muddatda OIV infeksiyasi tarqalishining oldini olish bo‘yicha shahar idoralararo ishchi guruhlarini shakllantirsin;

2022 yildan boshlab har yili 1 dekabrga qadar “Yo‘l xaritasi” ijrosini batafsil o‘rganish asosida keyingi yil uchun tegishli “Yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqsin va tasdiqlash uchun shahar hokimligiga kiritsin.

5. Shahar hokimining o‘rinbosari Sh.Dexkanov, Shahar Tibbiyot birlashmasi (K.Sirojiddinov) bilan birgalikda:

“Yo‘l xaritasi”da belgilangan tadbirlarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish, shuningdek, ajratilayotgan mablag‘lardan maqsadli foydalanish bo‘yicha boshqarma va tashkilotlar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda fuqarolik jamiyati tashkilotlari faoliyati va hamkorligini muvofiqlashtirsin;

idoralararo ishchi guruhi, shahar hokimligi bilan birgalikda “Yo‘l xaritasi”da belgilangan tadbirlar ijrosi ustidan monitoringni yo‘lga qo‘ysin va har chorakda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan shahar hokimiga axborot kiritib borsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari Sh.Dexkanov zimmasiga yuklatilsin.

Qo‘qon shahar hokimi



M.Usmonov

Qo‘qon shahar hokimining
2022 yil 5 maydagi
128-11-166-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Odam immunitet tanqisligi virusi infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurash bo‘yicha yoshlar faolligida olib

boriladigan tizimli targ‘ibot tadbirlari konsepsiyasini 2022-yilda amalga
oshirish bo‘yicha

“YO‘L XARITASI”

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddatlari	Moliyalashtirish manbalari	Mas‘ul ijrochilar
I. Odam immunitet tanqisligi virusi infeksiyasi profilaktikasi bo‘yicha tadbirlar					
1	2025 yilga borib odam immuntanqisligi virusi (keyingi o‘rinlarda – OIV) infeksiyasi epidemiyasiga barham berishga erishish uchun quyidagi sa‘y- harakatlarni inobatga olgan holda tarmoqlararo va hududiy chora-tadbirlar rejalarini qabul qilish: mahalliy, moddiy va kadrlar resurslarini safarbar qilish; OIV infeksiyasining ijtimoiy, moliyaviy, tibbiy, ma‘naviyaxloqiy jihatlari bilan bog‘liq muammolarni hal qilish masalalariga kompleks yondashish	Idoralararo va hududiy ishchi guruhlarni tashkil etish. Kasallanishning ijtimoiydemografik jihatlarni, epidemik jarayonni harakatlantiruvchi kuchlarni inobatga olgan holda OIV infeksiyasi epidemiyasiga barham berishni ko‘zda tutuvchi «95-95-95» tamoyiliga muvofiq tadbirlarni 2025 yilgacha amalga oshirish bo‘yicha hududiy choratadbirlar rejasini ishlab chiqish hamda mas‘ul ijrochilar bilan kelishish. Tarmoqlararo va hududiy ijrochilarga yagona tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasini ijro uchun yuborish.	2022-yil aprel	Ijrochilarning mablag‘lari, homiylik xayriyalari	Shahar hokimining o‘rinbosari Sh.Dexkanov Tibbiyot birlashmasi (K.Sirojiddinov) Xalq ta‘limi bo‘limi (D.Alimova) Yoshlar ishlari agentligi (A.Yunusov) Ichki ishlar bo‘limi, Din ishlari bo‘yicha Qo‘qon shahar bosh mutaxassisi G.Xomidova, Mahalla va nuroniylarni qo‘llabquvvatlash bo‘limi, Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi shahar bo‘limi
2.	OIV infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashish bo‘yicha vazirliklar, davlat qo‘mtalari, idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari va jamoat tashkilotlarining faoliyatini muvofiqlashtirish va o‘zaro hamkorligini jadallashtirish.	Idoralararo va shaharishchi guruhlarni tashkil etish. Shahar ijrochilarga yagona tasdiqlangan chora- tadbirlar rejasini ijro uchun yuborish.	2022-yil aprel	Ijrochilarning mablag‘lari, homiylik xayriyalari	Shahar hokimining o‘rinbosari Sh.Dexkanov, Tibbiyot birlashmasi (K.Sirojiddinov), Xalq ta‘limi bo‘limi (D.Alimova) Yoshlar ishlari agentligi (A.Yunusov), Ichki ishlar bo‘limi, Din ishlari bo‘yicha Qo‘qon shahar bosh mutaxassisi G.Xomidova Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi, Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi shahar bo‘limi

3.	OIV infeksiyasining profilaktikasi bo'yicha milliy rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish.	Idoralararo va shaharishchi guruhlarini tashkil etish. Shahardagi irochilarga yagona tasdiqlangan chora- tadbirlar rejasini ijro uchun yuborish.	2022-yil aprel	Ijrochilarning mablag'lari, homiylik xayriyalari	Shahar hokimining o'rinbosari Sh.Dexkanov, Tibbiyot birlashmasi (K.Sirojiddinov), Xalq ta'limi bo'limi (D.Alimova), Yoshlar ishlari agentligi (A.Yunusov), Ichki ishlar bo'limi, Din ishlari bo'yicha Qo'qon shahar bosh mutaxassisi G.Xomidova, Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi, Ma'naviyat va ma'rifat markazi shahar bo'limi
4.	Shaharda OIV infeksiyasi tarqalishining oldini olish holati monitoringini yuritish va doimiy ravishda har tomonlama baholash, maqsadli va manzilli choratadbirlarni ishlab chiqish.	Shahar ishchi guruhlarini tashkil etish va ijrochilarga yagona tasdiqlangan chora- tadbirlar rejasini ijro uchun yuborish.	2022-yil mart- aprel	Ijrochilarning mablag'lari, homiylik xayriyalari	Shahar hokimining o'rinbosari Sh.Dexkanov Tibbiyot birlashmasi (K.Sirojiddinov), Xalq ta'limi bo'limi (D.Alimova), Yoshlar ishlari agentligi (A.Yunusov), Ichki ishlar bo'limi, Din ishlari bo'yicha Qo'qon shahar bosh mutaxassisi G.Xomidova, Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi, Ma'naviyat va ma'rifat markazi shahar bo'limi
5.	OIV/OITSning oldini olish, tashxis qo'yish va davolashning inson salomatligi uchun xavfsiz usullarini o'rganish va joriy etishni ta'minlash;	Idoralararo va shaharishchi guruhlarini tashkil etish. Shahar ijrochilarga yagona tasdiqlangan chora- tadbirlar rejasini ijro uchun yuborish.	2022-yil mart-aprel		Shahar hokimining o'rinbosari Sh.Dexkanov Tibbiyot birlashmasi (K.Sirojiddinov) Xalq ta'limi bo'limi (D.Alimova) Yoshlar ishlari agentligi (A.Yunusov) Ichki ishlar bo'limi, Din ishlari bo'yicha Qo'qon shahar bosh mutaxassisi G.Xomidova Shahar bosh mutaxassisi Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi, Ma'naviyat va ma'rifat markazi shahar bo'limi

6.	<p>Aholining keng qatlamlari, ayniqsa yoshlar va xotin-qizlar, umumiy o'rta, oliy ta'lim muassasalari o'quvchi-talabalari o'rtasida OIV infeksiyasi tarqalishining oldini olish, uning kelib chiqishi sabablarini tushuntirish va oqibatlaridan himoya qilish choralarini ko'rish.</p>	<p>Aholining keng qatlamlari, ayniqsa yoshlar va xotin-qizlar, umumta'lim maktablari, oliy ta'lim muassasalari o'quvchi-talabalari o'rtasida giyohvandlik, OIV infeksiyasi tarqalishining oldini olishga qaratilgan quyidagi choralar ko'rilishi lozim: fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, davlat va nodavlat tashkilotlar hamkorligida keng tushuntirish-targ'ibot ishlari, ko'rgazmali uchrashuvlar va davra suhbatlari o'tkazilishini tashkil etish; aholining turli qatlamlari, turli kasb-hunar egalari, jumladan, yoshlar o'rtasida targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish va bilimlarini oshirishga mo'ljallangan metodik qo'llanmalar, o'quv modullari loyihagini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish; ta'lim muassasalari o'quvchi-talabalari o'rtasida OIV infeksiyasi tarqalishining oldini olish, uning kelib chiqishi sabablari va oqibatlaridan himoya qilish yuzasidan o'quv darslariga OIV infeksiyasi etiologiyasi, epidemiologiyasi va profilaktikasi mavzusida o'quv soatlarini oshirish choralarini ko'rish.</p>	2022 yil aprel	Ijrochilarning mablag'lari, homiylik xayriyalari	<p>Shahar hokimining o'rinbosari Sh.Dexkanov Tibbiyot birlashmasi (K.Sirojiddinov) Xalq ta'limi bo'limi (D.Alimova) Yoshlar ishlari agentligi (A.Yunusov) Ichki ishlar bo'limi, Din ishlari bo'yicha Qo'qon shahar bosh mutaxassisi G.Xomidova Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi, Ma'naviyat va ma'rifat markazi shahar bo'limi</p>
7.	<p>Shaharda aholining barcha qatlami, ayniqsa qishloq aholisining OIV infeksiyasidan xabardorlik darajasini oshirish.</p>	<p>Mahalla faollari, turli din vakillari, yosh volontyorlar va xotin-qizlarni OIV infeksiyasi masalalari bo'yicha o'qitib tayyorlash. Qishloq aholisi orasida OIV profilaktikasi bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borish va OIV infeksiyasiga tekshiruvdan o'tishida mahalla fuqarolar yig'inlari, Yoshlar ishlari agentligi faollari, diniy ulamolar hamda NNTlar bilan hamkorlikni ta'minlash. Aeroport va temir yo'l kutish zallarida OIV infeksiyasining oldini olish bo'yicha videoroliklar namoyishini yo'lga qo'yish.</p>	Doimiy ravishda	Ijrochilarning mablag'lari, homiylik xayriyalari	<p>Shahar hokimining o'rinbosari Sh.Dexkanov Tibbiyot birlashmasi (K.Sirojiddinov), Xalq ta'limi bo'limi (D.Alimova), Yoshlar ishlari agentligi (A.Yunusov), Ichki ishlar bo'limi, Din ishlari bo'yicha Qo'qon shahar bosh mutaxassisi G.Xomidova, Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi, Ma'naviyat va ma'rifat markazi shahar bo'limi</p>

8.	Uyushgan va uyushmagan yoshlar o'rtasida yuqumli infeksiyalarga ixtiyoriy davriy tekshiruvlardan o'tishga yo'naltirish va oila qurishga tayyorlash ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha tadbirlarni o'tkazish.	Migrantlar, nikohlanuvchilar, homiladorlar o'rtasida «Sog'lom oila — kelajak poydevori», «Farzanding sog'lom va barkamol bo'lishi» sening qo'lingda» kabi mavzularda tadbirlarni o'tkazish. Mahalla faollari va jamoat tashkilotlari vakillari ishtirokida uyushmagan yoshlar orasida OIV infeksiyasining oldini olishni targ'ib etuvchi tadbirlar tashkil etish.	Doimiy ravishda	Ijrochilarning mablag'lari, homiylik xayriyalari	Shahar hokimining o'rinbosari Sh.Dexkanov Tibbiyot birlashmasi (K.Sirojiddinov) Xalq ta'limi bo'limi (D.Alimova), Yoshlar ishlari agentligi (A.Yunusov), Ichki ishlar bo'limi, Din ishlari bo'yicha Qo'qon shahar bosh mutaxassisi G.Xomidova Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi, Ma'naviyat va ma'rifat markazi shahar bo'limi
9.	Ta'lim muassasalarida, harbiylashtirilgan ta'lim muassasalarida, mahallalarda va tibbiyot muassasalarida yoshlar o'rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, tibbiy ko'rikning sog'lom hayot kechirishda tutgan o'rni va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish maqsadida «Salomatlik kunlari»ni o'tkazish yuzasidan targ'ibot tadbirlarini olib borish.	Yoshlar, ayniqsa o'smirlar orasida OIV infeksiyasining oldini olish bo'yicha turli shakldagi tushuntirish-targ'ibot tadbirlarini (savol-javob kechalari, sport-madaniy tadbirlar, sahna namoyishi va h.k) o'tkazish. «Biz OITSGa qarshimiz» shiori ostida yoshlar orasida turli aksiya va sport musobaqalari o'tkazishni davom ettirish.	Doimiy ravishda	Ijrochilarning mablag'lari, homiylik xayriyalari	Shahar hokimining o'rinbosari Sh.Dexkanov, Tibbiyot birlashmasi (K.Sirojiddinov), Xalq ta'limi bo'limi (D.Alimova), Yoshlar ishlari agentligi (A.Yunusov), Ichki ishlar bo'limi, Din ishlari bo'yicha Qo'qon shahar bosh mutaxassisi G.Xomidova, Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi, Ma'naviyat va ma'rifat markazi shahar bo'limi
10.	Aholi, ayniqsa yoshlar orasida milliy qadriyatlar va an'analarni hisobga olgan holda OIV infeksiyasi profilaktikasiga bag'ishlangan sahna ko'rinishlari, hujjatli filmlar namoyishini tashkil etish.	Sahna ko'rinishlari, hujjatli filmlar loyihalarini tayyorlash, ekspertizadan o'tkazish va aholiga namoyish etish	Doimiy ravishda	Ijrochilarning mablag'lari, homiylik xayriyalari	Shahar hokimining o'rinbosari Sh.Dexkanov Tibbiyot birlashmasi (K.Sirojiddinov) Xalq ta'limi bo'limi (D.Alimova), Yoshlar ishlari agentligi (A.Yunusov), Ichki ishlar bo'limi, Din ishlari bo'yicha Qo'qon shahar bosh mutaxassisi G.Xomidova, Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi, Ma'naviyat va ma'rifat markazi shahar bo'limi

II. Aholini OIVga tibbiy tekshiruvdan o'tkazish qamrovini oshirish bo'yicha tadbirlar

11.	«95-95-95» tamoyiliga asosan shifoxonalarda klinik ko'rsatma asosida hamda ixtiyoriy tekshiruvlarni kengaytirish.	Tibbiyot xodimlarini (vrach, hamshira) OIV infeksiyasi bo'yicha o'qitish uchun trenerlar tayyorlash. OIV infeksiyasi bilan bog'liq masalalar bilan shaharva birlamchi bo'g'in darajasida shug'ullanuvchi tibbiyot xodimlarining bilimlarini oshirish.	Reja asosida	Ijrochilarning mablag'lari, mahalliy byudjet mablag'lari, donorlik mablag'lari	Shahar hokimining o'rinbosari Sh.Dexkanov Tibbiyot birlashmasi (K.Sirojiddinov)
12.	Aholi orasida OIV bilan kasallanganlarni erta aniqlash maqsadida tekshiruvlar qamrovini oshirish.	Test to'plamlariga ehtiyojni aniqlash va buyurtma tayyorlash. Test to'plamlarini sotib olish. Mobil brigadalar tashkil etish orqali uzoq hududlardagi aholiga OIV infeksiyasi bo'yicha tibbiy xizmat ko'rsatish amaliyotini yo'lga qo'yish. O'zini o'zi OIV infeksiyasiga testdan o'tkazish bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish. Ma'lum bir hududda sinov tariqasida o'zini o'zi OIV infeksiyasiga testdan o'tkazish usuli samaradorligini o'rganish va natijasi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.	Reja asosida	Donorlik mablag'lari, homiylik xayriyalari, ijrochilarning mablag'lari, mahalliy byudjet mablag'lari	Shahar hokimining o'rinbosari Sh.Dexkanov Tibbiyot birlashmasi (K.Sirojiddinov),
III. OIV infeksiyasi diganostikasi va OIV infeksiyali shaxslarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish borasidagi tadbirlar					
13.	OIV infeksiyasi tarqalishi jadalligiga ta'sir ko'rsatuvchi sabablarni aniqlash, ularning faolligini baholash, OIV infeksiyali bemorlarni davolash samarasini o'rganish bo'yicha maxsus tadqiqotlar o'tkazish.	Tadqiqot o'tkazish bo'yicha normativ hujjat tayyorlash. Epidemiologik, serologik va ijtimoiy tadqiqotlar o'tkazish. Olingan ma'lumotlarni tahlil qilish. O'tkazilgan tadbirlarning samaradorligini baholash va amalga oshiriladigan davolashprofilaktika ishlarini yaxshilash uchun tegishli tavsiyalar ishlab chiqish.	Doimiy ravishda	Ijrochilarning mablag'lari, homiylik xayriyalari	Shahar hokimining o'rinbosari Sh.Dexkanov Tibbiyot birlashmasi (K.Sirojiddinov)
14.	Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Favqulodda vaziyatlar, Mudofaa vazirligi va Davlat xavfsizligi xizmati tizimidagi hamda xususiy tibbiyot muassasalari tibbiy xodimlarini OIV infeksiyasi masalalari bo'yicha o'qitish.	O'quv va kalendar rejalarini tuzish. Reja asosida tajribaga ega va salohiyati yuqori mutaxassislarni jalb qilgan holda o'qitish ishlarini tashkil etish. Tibbiyot va soha xodimlarining OIV infeksiyasi masalalari bo'yicha bilimini oshirish.	2022 yil mart-aprel	Ijrochilarning mablag'lari, donorlik mablag'lari	Shahar hokimining o'rinbosari Sh.Dexkanov, Tibbiyot birlashmasi (K.Sirojiddinov)

Qo‘qon shahar hokimining
2022 yil 5 maydagi
128-11-166-Q/22-son qaroriga
2-ilova

**Qo‘qon shahrida OIV infeksiyasi tarqalishining oldini olish bo‘yicha
idoralararo ishchi guruhi tarkibi.**

1.	Sh.Dexkanov	Qo‘qon shahar hokimining o‘rinbosari,guruh rahbari
2.	K.Sirojiddinov	Qo‘qon shahar Tibbiyot birlashmasi boshlig‘i, guruh rahbari o‘rinbosari
3.	N.Sultonov	Qo‘qon shahar IIB boshlig‘i
4.	D.Alimova	Xalq ta‘limi bo‘limi boshlig‘i
5.	D.Qurbonov	Qo‘qon shahar mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘i
6.	A.Yunusov	Yoshlar ishlari agentligi Qo‘qon shahar bo‘limi boshlig‘i
7.	G.Homidova	Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning Qo‘qon shahar bosh mutaxassisi
8.	I.Fayzullayev	Ma‘naviyat va marifat markazi bo‘limi rahbari